

KAMBAG‘ALLIKNI BAHOLASHNING TURLI YONDOSHUVLARI

Annotatsiya. Ushbu maqolada kambag‘allikni baholashning turli yondashuvlari tizimli ravishda ko‘rib chiqiladi va ularning afzallik hamda kamchiliklari tahlil qilinadi. Kambag‘allikni baholashda monetar, nomonetar, ko‘p o‘lchovli, ijtimoiy, geografik, vaqt bo‘yicha tahliliy va xalqaro yondashuvlar muhokama qilinadi. Har bir yondashuvning nazariy asoslari va amaliy qo‘llanish tajribalari tahlil etilib, ularning muhim jihatlari yoritiladi. Shuningdek, zamonaviy yondashuvlar orqali kambag‘allikni samarali baholash va uning darajasini kamaytirish bo‘yicha tavsiyalar beriladi. Xalqaro miqyosda va mahalliy sharoitlarda kambag‘allikni aniqlashda yondashuvlarning o‘zaro ta’siri ham yoritiladi.

Kalit so‘zlar: kambag‘allik, baholash yondashuvlari, monetar yondashuv, nomonetar yondashuv, ko‘p o‘lchovli indeks, ijtimoiy yondashuv, xalqaro yondashuv.

Аннотация. В данной статье систематически рассматриваются различные подходы к оценке бедности, а также анализируются их преимущества и недостатки. Особое внимание уделено монетарным, немонетарным, многомерным, социальным, географическим, временным аналитическим и международным подходам к оценке бедности. Рассматриваются теоретические основы и практическое применение каждого подхода с акцентом на их важные аспекты. Также предлагаются рекомендации по эффективной оценке бедности и снижению её уровня с учётом современных подходов. Освещается взаимное влияние различных подходов на международном и местном уровнях.

Ключевые слова: бедность, методы оценки, монетарный подход, немонетарный подход, многомерный индекс, социальный подход, международный подход.

Abstract. This article systematically examines various approaches to poverty assessment and analyzes their advantages and disadvantages. The study focuses on monetary, non-monetary, multidimensional, social, geographical, temporal analytical, and international approaches to assessing poverty. The theoretical foundations and practical applications of each approach are discussed, highlighting their key aspects. Additionally, recommendations for effectively assessing poverty and reducing its level through modern approaches are provided. The interaction of various approaches at both international and local levels is also highlighted.

Keywords: poverty, assessment approaches, monetary approach, non-monetary approach, multidimensional index, social approach, international approach.

Kirish.

Bugungi kunda kambag‘allik dunyo miqyosida eng dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Har bir mamlakat o‘z iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasidan qat‘i nazar, kambag‘allikni kamaytirish va aholining turmush darajasini yaxshilash masalasiga alohida e’tibor qaratadi. Kambag‘allikni samarali baholash va tahlil qilish, ushbu muammoni hal etish yo‘llarini ishlab chiqish uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Kambag‘allikni baholashning bir nechta yondashuvlari mavjud bo‘lib, ularning har biri turli nazariy va metodologik asoslarga tayangan holda amalgalashadi.

Bu yondashuvlar iqtisodiy, ijtimoiy va boshqa omillarni hisobga olib, kambag‘allikni miqdoriy va sifat jihatdan tahlil qilishga imkon beradi. Ushbu maqolada kambag‘allikni baholashning asosiy yondashuvlari, ularning nazariy asoslari va qo‘llanilish tajribasi tahlil qilinadi. Xususan, monetar va nomonetar yondashuvlar, ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi va boshqa zamonaviy usullar o‘rganiladi. Maqolada, shuningdek, kambag‘allikni baholashda yuzaga keladigan muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Kambag‘allikni to‘g‘ri baholash nafaqat davlat siyosatini samarali amalga oshirishda, balki xalqaro miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka erishishda ham muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli, ushbu mavzu bo‘yicha chuqur tahliliy yondashuvlar va zamonaviy usullarni o‘rganish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Adabiyotlar sharhi

Kambag‘allikni baholash masalasi ko‘plab iqtisodchilar, sotsiologlar va tadqiqotchilar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu mavzu bo‘yicha mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan taklif etilgan turli yondashuvlar kambag‘allikni baholashning nazariy va amaliy jihatlarini yoritadi. O‘zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy rivojlanishi bilan bog‘liq kambag‘allikni baholash masalasi mahalliy olimlar tomonidan ham chuqur tadqiq etilgan. Jumladan, Rustamov A. X. (2021) o‘z tadqiqotlarida kambag‘allikni baholashda monetar va nomonetar yondashuvlarni qo‘llagan. U, xususan, daromad va iste’mol darajasi asosida kambag‘allik darajasini aniqlashni taklif etadi. Tadqiqotda kambag‘allikning hududiy farqlari ham muhokama qilingan. Xolbekov M. B. (2019) o‘z maqolasida ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksidan foydalanishni taklif etadi. Ushbu indeksda nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi omillar ham hisobga olinadi. Olimning ta’kidlashicha, ko‘p o‘lchovli yondashuv kambag‘allikni yanada aniqroq baholash imkonini beradi.

Kambag‘allikni baholash borasida yetakchi xorijiy olimlardan biri bo‘lgan Amartya Sen (1981) kambag‘allikni nafaqat daromad yetishmasligi, balki imkoniyatlarning cheklanganligi sifatida ham baholashni taklif etadi. U o‘zining "Kambag‘allik va Ocharchilik" asarida imkoniyatlar nazariyasini ishlab chiqib, kambag‘allikni inson kapitali va imkoniyatlar bilan bog‘liq masala sifatida ko‘radi. Sabina Alkire va James Foster (2011) tomonidan ishlab chiqilgan Ko‘p O‘lchovli Kambag‘allik Indeksi (MPI) ham keng qo‘llaniladi. Ushbu indeks bir vaqtning o‘zida bir nechta ko‘rsatkichlar, jumladan, sog‘liqni saqlash, ta’lim va turmush sharoitlarini hisobga oladi. Bu usul kambag‘allikning ko‘p qirrali tabiatini aniqroq aks ettirish imkonini beradi. World Bank (2020) va Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) (2019) ham kambag‘allikni baholashda monetar va nomonetar usullarni birlashtirgan yondashuvlardan foydalanadi. Xususan, "Kambag‘allik chegarasi" va "Sifatli hayot ko‘rsatkichlari" kabi usullar amaliyotga joriy etilgan. Yuqoridagi adabiyotlardan kelib chiqib, kambag‘allikni baholashda bir qator yondashuvlar mavjudligi ayon bo‘ladi. Mahalliy olimlar asosan iqtisodiy ko‘rsatkichlarga e’tibor qaratishsa, xorijiy tadqiqotchilar kambag‘allikni ko‘p o‘lchovli va imkoniyatlar nuqtai nazaridan baholashni taklif etadi. Shu bilan birga, zamonaviy yondashuvlarda kambag‘allikni baholashda inson kapitali, ijtimoiy infratuzilma va imkoniyatlar muhim rol o‘ynaydi. Bu tahliliy yondashuvlar nafaqat ilmiy tadqiqotlar uchun, balki amaliyotda kambag‘allikka qarshi kurash dasturlarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur yondashuvlarni mahalliy sharoitlarga moslashtirish orqali kambag‘allikni samarali kamaytirish imkoniyatlari oshadi.

Asosiy qism.

Kambag‘allikni baholash – bu jamiyatdagi iqtisodiy va ijtimoiy tengsizliklarni aniqlash, kambag‘allikning sabablari, ko‘lami va ta’sirini o‘lchash uchun qo‘llaniladigan usullar va jarayonlar yig‘indisidir. Ushbu baholash kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha samarali strategiyalarni ishlab chiqish va ijtimoiy siyosatni shakllantirishda asosiy o‘rin tutadi.

Kambag‘allikni baholashning maqsadi quyidagilardan iborat:

Birinchidan, holatni aniqlash: Jamiyatning qaysi qatlamlari va hududlari kambag‘allikdan ko‘proq aziyat chekishini aniqlash.

Ikkinchidan, sabablarni tushunish: Kambag‘allikka olib keluvchi iqtisodiy, ijtimoiy va infratuzilma omillarini tahlil qilish.

Uchinchidan, tahliliy asos yaratish: Resurslarni taqsimlash, yordam dasturlarini yo‘naltirish va siyosiy qarorlar qabul qilish uchun ilmiy asosni shakllantirish.

Kambag‘allikni baholashda iqtisodiy yondoshuvlar jarayonida iqtisodiy yondoshuvlar kambag‘allikni aniqlash va o‘lchashda asosan daromad, iste’mol, xarajatlar va iqtisodiy imkoniyatlarga asoslangan ko‘rsatkichlardan foydalanadi. Ushbu yondoshuv kambag‘allik darajasini o‘lchashda keng qo‘llaniladigan metodlarni o‘z ichiga oladi. Mutlaq kambag‘allik chizig‘i deganda – inson hayoti uchun zarur bo‘lgan minimal ehtiyojlarni (ovqat, kiyim-kechak, uy-joy) qondirish uchun zarur bo‘lgan daromad yoki xarajatlar miqdorini belgilaydi. Ushbu yondoshuv kambag‘allikni minimal iste’mol savatchasiga asoslangan holda o‘lchaydi. Bir mamlakatda kambag‘allik chizig‘i oyiga 200 AQSh dollari sifatida belgilangan bo‘lsa, bu

miqdordan kam daromad olgan shaxslar yoki oilalar mutlaq kambag‘allikda hisoblanadi. Nisbiy kambag‘allik – aholining umumiy daromad taqsimotidagi o‘rnini aniqlash orqali hisoblanadi. Bu yondoshuv kambag‘allikni jamiyatdagi o‘rtacha daromad yoki median daromad bilan solishtirib baholaydi. Evropa Ittifoqi davlatlarida kambag‘allik median daromadning 60% dan past bo‘lganlar deb aniqlanadi. Agar bir mamlakatda median daromad yiliga 30,000 dollar bo‘lsa, yiliga 18,000 dollardan kam daromad olgan shaxslar nisbiy kambag‘allikda deb baholanadi. Bu yondoshuv kambag‘allikni aholining daromadidan ko‘ra, ularning sarflari va iste’mol darajasiga asoslanib aniqlaydi. Bu usul ko‘pincha rivojlanayotgan davlatlarda qo‘llaniladi, chunki ko‘plab odamlar norasmiy daromad manbalariga ega. Hindistonda iste’mol savatchasi asosida kambag‘allikni aniqlash keng qo‘llaniladi. Savatcha ozuqa, uy-joy, kiyim-kechak va boshqa asosiy ehtiyojlarni o‘z ichiga oladi. Iste’mol xarajatlari minimal darajadan past bo‘lsa, shaxs yoki oila kambag‘allikda deb hisoblanadi. Inqirozdan chiqsa olmaslik indeksi (Poverty Gap Index), ushbu indeks kambag‘allik chizig‘idan past bo‘lgan aholining qancha masofada ekanligini o‘lchaydi. Boshqacha aytganda, kambag‘allikni yo‘qotish uchun zarur bo‘lgan resurslar miqdorini hisoblaydi. Agar bir mamlakatda kambag‘allik chizig‘i 200 dollar bo‘lsa, va bir oila oyiga 150 dollar daromad topsa, ularning "kambag‘allik bo‘shlig‘i" 50 dollarga teng bo‘ladi. Shu orqali aholining kambag‘allikdan chiqishi uchun zarur resurslar miqdori aniqlanadi.

Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI), bu yondoshuv nafaqat daromad va iste’molni, balki ta’lim, sog‘liq va yashash sharoitlarini ham inobatga oladi. MPI kambag‘allikni kengroq nuqtai nazardan baholash imkonini beradi. Bir oila ta’limga ega bo‘lmasa, toza ichimlik suvidan foydalana olmasa yoki elektr energiyasidan mahrum bo‘lsa, ular ko‘p o‘lchovli kambag‘allikka duch keladi. Bu yondoshuv 100 dan ortiq mamlakatlarda ishlatiladigan xalqaro standartdir. Milliy iqtisodiy tahlil bu milliy iqtisodiyotning umumiy rivojlanish ko‘rsatkichlari kambag‘allikni baholashda muhimdir. Bu yondoshuvda YaIM (yirik ichki mahsulot), ishsizlik darjasasi va investitsiyalar hajmi asosiy o‘rin tutadi. Agar bir mamlakatda YaIMning katta qismi faqat kichik guruhlar qo‘lida to‘plangan bo‘lsa, kambag‘allik keng tarqalgan bo‘lishi mumkin. Shu sabab, iqtisodiy ko‘rsatkichlar bevosita kambag‘allikni baholashda qo‘llaniladi. Iqtisodiy yondoshuvlar kambag‘allikni tushunish va unga qarshi samarali siyosat ishlab chiqishda zarur vositalarni taqdim etadi. Har bir uslubning afzalliklari va chekllovleri mavjud bo‘lib, ularni tanlash jarayonida mamlakatning xususiyatlarini hisobga olish lozim.

Kambag‘allikni baholashda ko‘p o‘lchovli yondoshuvlar nafaqat daromad darajasini, balki insonning hayot sifati va imkoniyatlarini ham hisobga oladi. Bu usul kambag‘allikning qamrovini kengroq tahlil qilishga imkon beradi va ijtimoiy tengsizlikni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

1-jadval

Ko‘p o‘lchovli yondoshuvlarning asosiy turlari

Yondoshuv nomi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI)	Ta’lim, sog‘liqni saqlash, yashash sharoitlari	Yaxlit baholash, ko‘p qirrali tahlil	Ma’lumotlar yig‘ish qiyinligi
Imkoniyatlar yondoshuvi (Amartya Sen)	Hayot sifati, imkoniyatlar va tanlash erkinligi	Inson kapitaliga e’tibor, inson huquqlarini hisobga olish	Subyektiv ko‘rsatkichlar qiyin baholanadi
Sifatli hayot yondoshuvi	Umr davomiyligi, ta’lim darjasasi, farovonlik darjasasi	Hayot sifatiga urg‘u, turmush darajasini aniqlash	Barcha mamlakatlar uchun universal emas
Ijtimoiy inklyuziya yondoshuvi	Ijtimoiy muhitga moslashish darjasasi, ishtirokchanlik	Ijtimoiy tenglikni o‘lchash imkoniyati	Ma’lumotlar to‘plashda qiyinchilik

Jahon Banki kambag‘allik chizig‘i yondoshuvi	Daromad darajasi (\$1.90 kuniga)	Globallashuv qiyosiy imkoniyati	va tahlil	Hayot sifati va imkoniyatlarni inobatga olmaydi
---	----------------------------------	---------------------------------	-----------	---

Jadvaldan shuni xulosa qilish mumkinki, ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI), ushu indeks kambag‘allikni baholashda eng keng tarqalgan usullardan biri bo‘lib, u BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) va Oksford Kambag‘allik va Inson Rivojlanishi Tashabbusi (OPHI) tomonidan ishlab chiqilgan. U nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, balki ta’lim va sog‘liqni saqlash kabi muhim omillarni ham qamrab oladi. Imkoniyatlar yondoshuvi (Amartya Sen), bu yondashuv kambag‘allikni faqat daromad bilan cheklamaydi, balki inson imkoniyatlarini, tanlash erkinligini va hayot sifatini ham hisobga oladi. Bu yondashuv inson kapitalini rivojlantirishga qaratilgan. Sifatli hayot yondoshuvi, ushu yondashuvda umr davomiyligi va ta’lim darajasi asosiy ko‘rsatkich sifatida olinadi. Hayot sifati va ijtimoiy farovonlikka e’tibor berilishi uni boshqa yondashuvlardan ajratib turadi. Ijtimoiy inklyuziya yondoshuvi, bu yondashuv ijtimoiy tengsizlikni aniqlashda foydalaniladi va ijtimoiy hayotda ishtirok etish imkoniyatini baholaydi. U qashshoqlikning ijtimoiy jihatlarini o‘rganish uchun muhimdir. Jahon Banki kambag‘allik chizig‘i yondoshuvi, Jahon Banki tomonidan taklif etilgan bu usul kambag‘allikni faqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar asosida baholaydi. \$1.90 kunlik daromaddan past daromadga ega bo‘lgan shaxslar kambag‘al deb hisoblanadi.

Kambag‘allikni baholashda ko‘p o‘lchovli yondoshuvlar ko‘proq imkoniyat va sifat omillarini hisobga olishi bilan ahamiyatlidir. Bu esa ijtimoiy-iqtisodiy siyosatni shakllantirishda va kambag‘allikka qarshi kurashda samaradorlikni oshiradi. Zamonaviy yondashuvlarni qo‘llash mamlakatda kambag‘allik darajasini aniqroq baholash va ijtimoiy farovonlikni oshirish uchun muhimdir.¹ Markaziy Osiyoda suv resurslarining kamayishi qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanuvchi oilalarning daromadiga salbiy ta’sir qilmoqda. Bu oilalarni boshqa imkoniyatlar qidirmasdan kambag‘allikda qolishlariga sabab bo‘ladi.

Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI). Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi kambag‘allikning yuqorida barcha o‘lchamlarini jamlab, ijtimoiy va iqtisodiy holatlarni kompleks baholaydi. Bu indeks xalqaro tashkilotlar tomonidan keng qo‘llanilib, siyosiy qarorlar qabul qilishda muhim vosita hisoblanadi. Misol uchun Nepalda MPI hisob-kitoblarida aholining 29% ko‘p o‘lchovli kambag‘allikda yashaydi. Bu o‘z ichiga ta’lim, sog‘liq va yashash sharoitlari bo‘yicha ko‘rsatkichlarni oladi. Efiopiyada esa MPI ma‘lumotlariga ko‘ra, aholi orasida toza ichimlik suvi va elektr energiyasi yetishmovchiligi keng tarqalgan. Ko‘p o‘lchovli yondoshuvlar kambag‘allikni nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy va ekologik jihatlari orqali ham baholash imkonini beradi. Ushbu yondashuv kambag‘allikka qarshi kurashda ko‘proq samarali va adolatli choralar ni ishlab chiqishga yordam beradi.

Kambag‘allikni baholashda ijtimoiy yondoshuvlar insoning hayot sifati va ijtimoiy farovonlik darajasini o‘lchashga qaratilgan. Bu yondashuvlar nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarga, balki insonning ijtimoiy himoya, ta’lim, sog‘liqni saqlash va boshqa asosiy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatlariga ham e’tibor beradi.

2-jadval

Ijtimoiy yondoshuvlarning asosiy turlari

Yondoshuv nomi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Inson rivojlanishi indeksi (HDI)	Umr davomiyligi, ta’lim darajasi, yashash darajasi	Kompleks baholash, global qiyoslash imkoniyati	Ko‘rsatkichlarning vazni subyektiv

¹ Alkire, Sabina, & Foster, James. (2011). *Counting and Multidimensional Poverty Measurement*. Journal of Public Economics, 95(7-8), 476-487.

Ijtimoiy inklyuziya yondoshuvi	Ijtimoiy tenglik, xavfsizlik	ishtirok, ijtimoiy	Ijtimoiy tenglikni tahlil qilish imkoniyati	Subyektiv ko'rsatkichlar yetarlicha baholanmasligi
Barqaror rivojlanish indeksi (SDI)	Iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy rivojlanish ko'rsatkichlari	Uzoq muddatli rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik	Uzoq muddatli rivojlanish va ijtimoiy barqarorlik	Kompleks hisobotlar talab etadi
Sifatli hayot indeksi (QLI)	Sog'liq, ta'lim, xavfsizlik va turmush sharoitlari	Hayot sifati va xavfsizlikni hisobga olish	Hayot sifati va xavfsizlikni hisobga olish	Ko'rsatkichlar subyektiv va mamlakatlar orasida farq qilishi
Ijtimoiy farovonlik indeksi (SWI)	Sog'liqni saqlash, ta'lim, ijtimoiy himoya	Ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni aniqlash	Ijtimoiy barqarorlik va farovonlikni aniqlash	Ma'lumotlar yig'ishdagি murakkablik

Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, inson rivojlanishi indeksi (HDI), ushbu yondashuv BMT Taraqqiyot Dasturi (UNDP) tomonidan ishlab chiqilgan va uchta asosiy komponentni o'z ichiga oladi: umr davomiyligi, ta'lim darajasi va yashash darajasi. HDI mamlakatlar o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish uchun keng qo'llaniladi. Bu indeks inson kapitalini rivojlantirish bilan bog'liq muammolarni yoritishga yordam beradi. Ijtimoiy inklyuziya yondoshuvi, bu yondashuvda asosiy e'tibor ijtimoiy tenglik va ijtimoiy xavfsizlikka qaratiladi. Yondashuv jamiyatdagi zaif guruhlarning ishtirok darajasini o'lchaydi va tenglikni ta'minlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda qo'llaniladi. Barqaror rivojlanish indeksi (SDI), bu barqaror rivojlanish uch o'lchamda baholanadi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Bu indeks barqaror taraqqiyotga erishish uchun resurslardan oqilona foydalanishni rag'batlantiradi va ijtimoiy barqarorlikni ta'minlaydi. Sifatli hayot indeksi (QLI), bu sifatli hayot indeksi hayotning sifati va xavfsizligini o'lchashga qaratilgan. Bu indeks sog'liqni saqlash, ta'lim va xavfsizlik kabi asosiy komponentlarni o'z ichiga oladi. Yondashuv aholini turmush darajasi bo'yicha baholashda keng qo'llanadi. Ijtimoiy farovonlik indeksi (SWI), bu ijtimoiy farovonlik indeksi kambag'allikni nafaqat iqtisodiy ko'rsatkichlar asosida, balki ijtimoiy himoya va farovonlik darajasi asosida ham baholashga imkon beradi. Bu yondashuv ijtimoiy himoya dasturlarining samaradorligini tahlil qilishda foydali. Ijtimoiy yondoshuvlar kambag'allikni nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki insonning hayot sifati va ijtimoiy farovonlik darajasi nuqtai nazaridan ham baholash imkonini beradi. Bunday yondashuvlar kambag'allikka qarshi kurashish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqishda va aholi turmush darajasini yaxshilashda muhim ahamiyatga ega. Ijtimoiy yondoshuvlar -kambag'allikni shaxsning jamiyatda to'laqonli hayot kechirish imkoniyatlari bilan bog'liq masalalar orqali tahlil qiladi. Ushbu yondashuvda insonning sog'liq, ta'lim, bandlik, ijtimoiy xavfsizlik tizimi va umumiylar farovonlikka ega bo'lish imkoniyatlari baholanadi.¹

Ta'lim imkoniyatlarining mavjudligi insonning keljakdagi daromad darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Afrikaning ba'zi hududlarida qiz bolalarning maktabga qatnash darajasi juda past. Bu holat keyinchalik ularning iqtisodiy faoliyatga qo'shilishi va daromad topish imkoniyatlarini cheklaydi. Natijada kambag'allik avloddan-avlodga o'tib boradi. Sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatining yo'qligi yoki cheklanganligi insonning ishga layoqatini kamaytiradi va kambag'allikni kuchaytiradi. Hindistonda qashshoq oilalar orasida toza ichimlik suvining yo'qligi tufayli tez-tez kasallanish holatlari uchraydi. Bu oilalarning davolanish xarajatlarini oshiradi va ular moliyaviy qiyinchiliklarga duch keladi. Toza suv, elektr energiyasi va sanitariya xizmatlaridan foydalana olmaslik ijtimoiy tengsizlikni kuchaytiradi va hayot sifatini pasaytiradi. Lotin Amerikasi mamlakatlarida kambag'al aholi odatda infratuzilma rivojlanmagan chekka hududlarda yashaydi. Bu joylarda suv va elektr energiyasidan foydalana olish imkoniyati past bo'lib, bolalarning sog'lig'i va o'qishga qatnashishiga salbiy ta'sir qiladi. Ijtimoiy xavfsizlik tizimining samarador emasligi yoki yo'qligi kambag'allikka qarshi kurashni qiyinlashadir. Aholining xavfsizligini ta'minlaydigan ijtimoiy dasturlar kambag'allikni qisqartirishda muhim rol

¹ United Nations. (2003). *Indicators for Monitoring the Millennium Development Goals.* <https://unstats.un.org>

o‘ynaydi. O‘zbekistonda ijtimoiy yordam dasturlarining kengaytirilishi natijasida kam ta’minlangan oilalarning moddiy holati sezilarli darajada yaxshilanmoqda. Ayniqsa, bolali oilalar uchun davlat tomonidan ko‘rsatiladigan subsidiya va yordamlar bu yo‘nalishda muhim qadam hisoblanadi.

Aholining doimiy va barqaror daromadga ega ish o‘rinlariga ega bo‘lmasligi ijtimoiy muammolarni kuchaytiradi. Bandlik imkoniyatlari yetarli bo‘lman hududlarda kambag‘allik ko‘rsatkichi yuqori bo‘ladi. Bangladeshda ayollarni kichik biznes va hunarmandchilikka jalb etish orqali kambag‘allik darajasi pasaytirilmoqda. Masalan, ularga tikuvchilik uskunalari berish orqali daromad manbai yaratilmoqda. Jamoa ichidagi ijtimoiy yordam tizimlari kambag‘allikni qisqartirishda muhim ahamiyatga ega. Jamiyatdagi o‘zaro yordam va qo‘llab-quvvatlash aholini iqtisodiy va ijtimoiy xavflardan himoya qiladi. Janubiy Koreyada kambag‘al oilalar uchun maxsus mahalliy yordam dasturlari mavjud bo‘lib, ular ta’lim xarajatlari, sog‘liqni saqlash va bandlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu dasturlar orqali kambag‘al oilalarning ijtimoiy mavqeい mustahkamlanadi. Ayollar va erkaklar o‘rtasida imkoniyatlarning teng bo‘lmasligi kambag‘allikni kuchaytiruvchi omillardan biridir. Ayollarning ta’lim olish, ishga joylashish va qaror qabul qilishdagi chekllovleri ijtimoiy rivojlanishga salbiy ta’sir qiladi. Saudiya Arabistonida so‘nggi yillarda ayollarning bandlikka kirish imkoniyatlarini kengaytirish orqali ularning iqtisodiy holatini yaxshilashga e’tibor qaratilmoqda. Bu gender tengsizligini kamaytirishga yordam berdi. Ijtimoiy yondoshuvlar kambag‘allikni nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlar orqali, balki ijtimoiy resurslardan foydalanish imkoniyatlari orqali tahlil qilishga imkon beradi. Bu yondoshuv adolatli va samarali siyosatlarni ishlab chiqishda muhim vosita hisoblanadi.

Kambag‘allikni baholashda geografik yondoshuvlar hududiy tafovutlarni aniqlashga qaratilgan bo‘lib, turli mintaqalardagi kambag‘allik darajasini tahlil qilishga imkon beradi. Bu yondashuvlar mamlakat ichidagi va xalqaro darajadagi kambag‘allikni baholashda ham qo‘llanadi. Hududiy tafovutlarni tahlil qilish iqtisodiy siyosatni aniq rejalashtirish va mahalliy sharoitlarni inobatga olish uchun muhimdir.

3-jadval

Geografik yondoshuvlarning asosiy turlari

Yondoshuv nomi	Asosiy ko‘rsatkichlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Hududiy kambag‘allik indeksi	Hududiy daromad farqlari, ish bilan ta’minlanish, infratuzilma	Mahalliy kambag‘allikni aniqlash	Hududiy ma’lumotlar yetishmovchiligi
Regional noaniqlik tahlili	Aholi zichligi, iqtisodiy faoliyat, infratuzilma	Hududiy tafovutlarni aniqlash	Ko‘p darajali tahlil talab qilishi
Shahar va qishloq kambag‘alligi yondoshuvi	Shahar va qishloq daromad farqlari, yashash sharoitlari	Shahar va qishloq kambag‘alligini qiyoslash	Ma’lumotlar noaniqligi va statistik kamchiliklar
Hududiy indekslash yondoshuvi	Yashash darajasi, iqtisodiy imkoniyatlar, ijtimoiy xizmatlar	Hududlararo solishtirish imkoniyati	Geografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik zaif
Geodemografik yondoshuv	Aholi soni, demografik o‘zgarishlar, migratsiya	Demografik holatni tahlil qilish imkoniyati	Aholi harakati tufayli natijalar tez o‘zgarishi

Jadval ma’lumotlaridan shuni tahlil qilish mumkinki, geografik yondoshuvlarning tahlilida hududiy kambag‘allik indeksi, regional noaniqlik tahlili, shahar va qishloq kambag‘alligi yondoshuvi, hududiy indekslash yondoshuvi va geodemografik yondoshuv alohida o‘rganiladi. Hududiy kambag‘allik indeksi yondashuvida mintaqaviy farqlar, daromad darajasi va infratuzilma omillari asosida kambag‘allikni baholash amalga oshiriladi. Ushbu indeks hududiy rivojlanish

dasturlarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Regional noaniqlik tahlili yondashuvi hududiy tafovutlar va noaniqliklarni o'rganish uchun mo'ljallangan. Hududiy iqtisodiy rivojlanish va ijtimoiy tenglikni ta'minlash uchun foydalaniladi. Ko'p darajali va ko'p omilli tahlil usullari talab etiladi. Shahar va qishloq kambag'alligi yondoshuvida kambag'allik darjasasi shahar va qishloq joylari kesimida o'rganiladi. Ushbu yondashuv iqtisodiy siyosatni rejalashtirishda va turli hududlarga xos muammolarni aniqlashda qo'llanadi. Gududiy indekslash yondoshuvida, bu yondashuv turli hududlarning iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarini indekslash orqali qiyoslash imkonini beradi. Hududlar o'rtasidagi rivojlanish farqlarini aniqlash uchun qo'llanadi. Geodemografik yondoshuv, bu usul demografik va geografik o'zgarishlarni tahlil qilishga qaratilgan. Migratsiya va aholi sonining o'zgarishi kambag'allik darajasiga qanday ta'sir qilishini aniqlashda qo'llanadi. Geografik yondoshuvlar kambag'allikni hududiy jihatdan baholash va mintaqaviy rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega. Hududiy tafovutlarni aniqlash orqali davlat siyosatini yanada samarali rejalashtirish va aholi turmush darajasini yaxshilash imkoniyatlari kengayadi.

Geografik yondoshuv kambag'allikni hududiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan. Bu yondoshuv kambag'allikning turli mintaqalarda qanday shakllanishini, uning xususiyatlarini va hududiy farqlarni aniqlashga yordam beradi. Shuningdek, bu yondoshuv hududiy siyosat va strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Kambag'allikni baholashda vaqt bo'yicha tahliliy yondoshuvlar kambag'allik darajasidagi o'zgarishlarni vaqt mobaynida kuzatish va tahlil qilishga qaratilgan. Bu yondoshuvlar dinamika va tendensiyalarini o'rganish orqali strategik qarorlar qabul qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Vaqt bo'yicha tahlil qilish kambag'allikning barqarorligi, o'zgaruvchanligi yoki kamayishi kabi holatlarni o'z ichiga oladi.

4-jadval

Vaqt bo'yicha tahliliy yondoshuvlarning asosiy turlari

Yondoshuv nomi	Asosiy ko'rsatkichlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Vaqt qatorlari tahlili	Yillik o'zgarishlar, tendensiyalar, mavsumiy tebranishlar	Vaqt davomida kambag'allikni kuzatish imkoniyati	Tahlil natijalariga vaqt omillarining ta'siri kuchli bo'lishi
Trend tahlili	Uzoq muddatli o'zgarishlar, barqarorlik yoki kamayish	Kambag'allikning asosiy yo'nalishlarini aniqlash	Iqtisodiy shoklar ta'sirini hisobga olish qiyin
Mavsumiy tebranish tahlili	Fasllar yoki mavsumiy o'zgarishlar	Mavsumiy kambag'allikni tahlil qilish imkoniyati	Tahlil ko'p davr ma'lumotlarini talab qiladi
Davra tahlili	Iqtisodiy sikllar, inqiroz va tiklanish davrlari	Inqiroz va barqarorlik davrlarini tahlil qilish	Iqtisodiy sikllarni aniq bashorat qilish qiyin
Vaqtlararo kambag'allikni baholash	Yillik va o'n yillik davrlar, rivojlanish yoki tanazzul	Uzoq muddatli rivojlanish tahlili	Vaqt davomida ma'lumotlarning o'zgarishi

Jadval bo'yicha xulosa qilish mumkinki, vaqt bo'yicha tahliliy yondoshuvlarning tahlilida vaqt qatorlari tahlili, trend tahlili, mavsumiy tebranish tahlili, davra tahlili va vaqtlararo kambag'allikni baholash kabi tahlillardan foydalanilgan.

Vaqt qatorlari tahlili, bu usul vaqt davomida kambag'allik darajasidagi o'zgarishlarni o'rganishga qaratilgan. Vaqt qatorlari ma'lumotlari yordamida vaqt davomida barqarorlik yoki o'zgaruvchanlikni aniqlash mumkin. Yillik kambag'allik darjasasi, tendensiyalar va mavsumiy o'zgarishlar asosiy tahlil ob'ektlari hisoblanadi. Trend tahlili vaqt davomida kambag'allikning asosiy yo'nalishini aniqlash imkonini beradi. Ushbu yondashuv uzoq muddatli rivojlanish yoki

tanazzulni baholash uchun samaralidir. Iqtisodiy shoklar yoki global moliyaviy inqirozlar kabi omillar natijalarga ta'sir ko'rsatishi mumkin. Mavsumiy tebranish tahlili mavsum yoki fasllar bilan bog'liq kambag'allik o'zgarishlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu yondashuv kambag'allikning mavsumiy sabablari va ularni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqishga yordam beradi. Davra tahlili iqtisodiy sikllar va ularning kambag'allikka ta'sirini o'rganishga qaratilgan. Iqtisodiy inqiroz va tiklanish davrlarida kambag'allikning qanday o'zgarishini aniqlash orqali davlat siyosatini shakllantirishda foydalilanildi. Vaqtlararo kambag'allikni baholashda bu yondashuv vaqt davomida kambag'allik darajasining qanday o'zgarayotganligini aniqlash imkonini beradi. Yillik yoki o'n yillik ko'rsatkichlar asosida uzoq muddatli strategiyalarini ishlab chiqish va rivojlanishni rejalashtirish mumkin.

Vaqt bo'yicha tahliliy yondoshuvlar kambag'allikning vaqt o'tishi bilan qanday o'zgarishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar nafaqat qisqa muddatli o'zgarishlarni, balki uzoq muddatli tendensiyalarini ham kuzatishga imkon beradi. Vaqtlararo tahlillar yordamida iqtisodiy siyosatni moslashtirish va kambag'allikni kamaytirish strategiyalarini ishlab chiqish mumkin.

Vaqt bo'yicha tahliliy yondoshuv kambag'allikni turli davrlar kesimida o'rganishni nazarda tutadi. Bu yondoshuv orqali kambag'allikning o'zgarish dinamikasi, uning tendensiyalari va sabablarini aniqlash mumkin. Shuningdek, u siyosat va dasturlar samaradorligini baholash uchun ham qo'llaniladi.¹

Kambag'allikni xalqaro darajada baholash global iqtisodiy va ijtimoiy farqlarni aniqlashda muhim ahamiyatga ega. Bu yondoshuvlar dunyo mamlakatlarida kambag'allik darajasi va uning sabablarini o'rtasidagi farqlarni tahlil qilish imkonini beradi. Xalqaro yondoshuvlar ko'plab xalqaro tashkilotlar va tadqiqot institutlari tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalarga asoslanadi.

5-jadval

Xalqaro yondoshuvlarning asosiy turlari.

Yondoshuv nomi	Asosiy ko'rsatkichlar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Jaxon Banki kambag'allik chizig'i	Kuniga \$1.90 yoki \$3.20 daromad	Globallashgan qiyosiy tahlil	Hayot sifatini to'liq aks ettirmaydi
Inson rivojlanishi indeksi (HDI)	Umr davomiyligi, ta'lim darajasi, yashash darajasi	Kompleks yondashuv, global qiyoslash imkoniyati	Ba'zi ko'rsatkichlarning subyektivligi
Ko'p o'lchovli kambag'allik indeksi (MPI)	Ta'lim, sog'liqni saqlash, yashash sharoitlari	Turli omillarni birlashtirish	Ma'lumot yig'ish qiyinligi
Gini koeffitsienti	Daromad taqsimoti, iqtisodiy tengsizlik	Tengsizlikni baholash uchun samarali	Iqtisodiy tafovutlarni to'liq aks ettirmaydi
Milliy kambag'allik chizig'i	Har bir mamlakatning o'ziga xos daromad yoki yashash darajasi	Mahalliy sharoitlarga moslashish	Global solishtirish imkoniyati past
Global farovonlik indeksi (Legatum Institute)	Farovonlik, xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik	Hayot sifatiga va farovonlikka urg'u berish	Mamlakatlar o'rtasida bir xil baholanmasligi

Jahon Banki tomonidan ishlab chiqilgan bu yondashuv kambag'allikni kunlik daromad mezoni asosida baholaydi: \$1.90 va \$3.20 chiziqlari xalqaro kambag'allik darajasini belgilaydi. Bu usul kambag'allikni iqtisodiy nuqtai nazardan global solishtirish uchun samaralidir, ammo hayot sifatini to'liq aks ettirmaydi. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Taraqqiyot Dasturi tomonidan ishlab chiqilgan HDI inson rivojlanishining uchta asosiy ko'rsatkichi: umr davomiyligi, ta'lim va yashash darjasini o'z ichiga oladi. Bu yondashuv mamlakatlar orasidagi farqlarni

¹ Ravallion, Martin. (1992). *Poverty Comparisons*. Routledge.

aniqroq tahlil qilish imkonini beradi. Ko‘p o‘lchovli kambag‘allik indeksi (MPI), bu indeks kambag‘allikni nafaqat iqtisodiy, balki ta’lim, sog‘liqni saqlash va yashash sharoitlari kabi boshqa omillar bilan ham baholaydi. MPI kambag‘allikning ko‘p qirrali tabiatini yoritishda muhim rol o‘ynaydi. Gini koeffitsienti daromadning teng taqsimlanishini o‘lchaydi. Bu yondashuv tengsizlik darajasini baholash uchun qo‘llaniladi va iqtisodiy notenglikni aniq ko‘rsatadi. Ko‘rsatkich 0 dan 1 gacha bo‘lib, 0 to‘liq tenglikni, 1 esa maksimal tengsizlikni bildiradi.

Milliy kambag‘allik chizig‘i har bir mamlakatning iqtisodiy sharoitlariga mos ravishda belgilanadi. Bu usul milliy darajada kambag‘allikni aniqroq baholash uchun qo‘llanadi va mahalliy siyosatni shakllantirishda yordam beradi. Global farovonlik indeksi, Legatum Institute tomonidan ishlab chiqilgan bu indeks hayot sifati, xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy rivojlanish omillariga asoslanadi. Ushbu indeks global miqyosda farovonlik va kambag‘allik darajasini aniqlash uchun samaralidir. Xalqaro yondoshuvlar kambag‘allikni turli mamlakatlarda va mintaqalarda qiyoslash imkonini beradi. Bu yondashuvlar xalqaro tashkilotlar tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyalarga asoslangan bo‘lib, global miqyosda ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni samarali baholashda yordam beradi. Har bir yondashuvning afzalliklari va kamchiliklarini inobatga olgan holda, kompleks tahlil qilish strategik qarorlarni qabul qilishda muhimdir. Juhon banki Afrikaning Sahroi Kabir hududida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish dasturlarini moliyalashtirgan. Natijada, hosildorlik oshib, minglab oilalar kambag‘allikdan chiqdi.¹ BMTning "Millennium Development Goals" dasturi orqali 2000-2015 yillarda dunyo bo‘ylab 1 milliardga yaqin odam mutlaq kambag‘allikdan chiqarildi. XVJning "Heavily Indebted Poor Countries Initiative" dasturi orqali Afrikaning bir nechta davlatlari o‘z iqtisodiy resurslarini kambag‘allikka qarshi kurashga yo‘naltirishga erishdi.² Oxfam Hindistonda ayollar uchun tadbirkorlik dasturlarini tashkil etib, minglab oilalarni kambag‘allikdan chiqishiga yordam berdi. Sharqiy Yevropa mamlakatlarda kambag‘allikni qisqartirish uchun YI tomonidan grant va yordam dasturlari amalga oshirilmoqda. ILOning Janubiy Osiyo mamlakatlarida qabul qilgan strategiyasi orqali bolalar mehnatiga qarshi kurash natijasida qashshoq oilalarning bolalari ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Xalqaro yondoshuvlar kambag‘allikni qisqartirishda muhim rol o‘ynaydi. Juhon banki, BMT, XVJ kabi tashkilotlar o‘z yondoshuvlari orqali global miqyosda kambag‘allikka qarshi kurashni qo‘llab-quvvatlaydi. Ular davlatlar va mintaqalar o‘rtasida tajriba almashish, moliyaviy va texnik yordam ko‘rsatish orqali qashshoqlik muammosini hal qilishda ahamiyatlidir.

Xulosa.

Kambag‘allik zamonaviy dunyoning eng dolzarb muammolaridan biri bo‘lib, u nafaqat iqtisodiy jihatdan, balki ijtimoiy, demografik va ekologik o‘zgarishlar bilan ham chambarchas bog‘liqdir. Kambag‘allikni samarali baholash nafaqat uning real ko‘lamini aniqlash, balki unga qarshi kurashish strategiyalarini ishlab chiqishda ham muhim ahamiyatga ega. Mazkur maqolada kambag‘allikni baholashning turli yondashuvlari tizimli ravishda ko‘rib chiqildi va ularning afzallik hamda kamchiliklari tahlil qilindi. Kambag‘allikni baholashda zamonaviy yondashuvlar nafaqat daromad va iste’mol darajasiga asoslanadi, balki hayot sifati, ta’lim, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy himoya kabi omillarni ham qamrab oladi. Bu esa kambag‘allikni yanada kengroq va to‘laqonli tahlil qilish imkonini beradi. Xalqaro miqyosda kambag‘allikni baholash uchun ishlab chiqilgan indekslar va ko‘rsatkichlar global notenglik darajasini aniqlash va mamlakatlararo qiyoslash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.

1. Sen, Amartya. Poverty and Famines: An Essay on Entitlement and Deprivation. Oxford University Press, 1981.
2. Alkire, Sabina, and Foster, James. Counting and Multidimensional Poverty Measurement. Journal of Public Economics, 2011.
3. World Bank. Poverty and Shared Prosperity 2020: Reversals of Fortune. Washington, DC: World Bank Publications, 2020.

¹ Ravallion, Martin. (1992). *Poverty Comparisons*. Routledge.

² Oxford Poverty and Human Development Initiative (OPHI). *Multidimensional Poverty Index (MPI)*. <https://ophi.org.uk>

4. United Nations Development Programme (UNDP). Human Development Report 2020: The Next Frontier - Human Development and the Anthropocene. New York: UNDP, 2020.
5. Ravallion, Martin. Poverty Comparisons. Harwood Academic Publishers, 1994.
6. Legatum Institute. The Legatum Prosperity Index 2021. London: Legatum Institute, 2021.
7. Deaton, Angus. The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality. Princeton University Press, 2013.
8. Atkinson, Anthony B. Measuring Poverty Around the World. Princeton University Press, 2019.
9. Foster, James, Greer, Joel, and Thorbecke, Erik. A Class of Decomposable Poverty Measures. *Econometrica*, 1984.
10. Kanbur, Ravi, and Squire, Lyn. The Evolution of Thinking About Poverty: Exploring the Interactions. 1999.
11. Xolbekov, M.B. O'zbekiston hududiy rivojlanish tahlili va kambag'allik darajasini o'lchash. Iqtisodiyot va innovatsiyalar, 2019.
12. Rustamov, A.X. Kambag'allikni baholashda iqtisodiy ko'rsatkichlarning ahamiyati. Tahliliy iqtisodiyot jurnali, 2021.
13. OECD (Organisation for Economic Co-operation and Development). Income Inequality and Poverty: Trends and Policy Implications. OECD Publishing, 2015.
14. Chambers, Robert. Rural Development: Putting the Last First. Longman, 1983.
15. Ravallion, Martin, and Chen, Shaohua. Measuring Pro-Poor Growth. *Economics Letters*, 2003.
16. Rajabova, M. (2021). ROLE OF COMMERCIAL BANKS IN THE PROVISION OF FINANCIAL SERVICES IN UZBEKISTAN. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 7(7).
17. Abdusolikova, R. M. (2023). ADVANTAGES OF MARKETING STRATEGIES IN ATTRACTING INDIVIDUAL AND CORPORATE CLIENTS. *IMRAS*, 6(8), 143-148.
18. Rajabova, M. (2023). FEATURES OF COMMERCIAL BANKS IN ENSURING THE ECONOMIC GROWTH OF THE COUNTRY. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz)*, 36, 36.
19. Khidirova, G. (2018). The methods of identify impact of leading idustry on social-economical development. *International Finance and Accounting*, 2018(4), 15.
20. Khidirova, G. (2018). The world experiance of providing economical development in the region. *International Finance and Accounting*, 2018(5), 11.
21. Koroleva, N., Achaeva, M., Pospelova, N., & Khidirova, G. (2023). World development of vocational training of social workers and system of social work and training at the regional level in Tatarstan. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 449, p. 07003). EDP Sciences.
22. Хидирова, Г. Р. (2017). Новые технологии и инновации-важный фактор развития туризма в Узбекистане. In *Современные тенденции и актуальные вопросы развития туризма и гостиничного бизнеса в России* (pp. 469-471).